



O‘N O‘RTOQ, SANAB BOQ

<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.044>

*Axtamova Zarina*

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti  
Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi*

*2-kurs magistranti*

[zarinaaxtamova3@gmail.com](mailto:zarinaaxtamova3@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Dilshod Rajabning “O‘n o‘rtoq, sanab boq” asari orqali badiiy adabiyotning inson ruhiyati va intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ilmiy ma’lumotlar va badiiy hissiyotning o‘zaro uyg‘unligi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda muhim ekanligi ko‘rsatib beriladi. Asar qahramonlarining ismlari va obrazlari tahlili orqali kichik yoshdagi bolalar uchun ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jihatlar ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy adabiyot, tafakkur, Dilshod Rajab, matematika, do‘stlik, estetik tarbiya, mantiqiy fikrlash.

**Abstract:** This article analyzes the role of fiction in enhancing the human psyche and intellectual potential through Dilshod Rajab’s work, "Ten Friends, Count and See" (O‘n o‘rtoq, sanab boq). It demonstrates the importance of the harmony between scientific data and artistic emotion in shaping children's worldviews. Through an analysis of the characters' names and portrayals, the article highlights the educational and pedagogical aspects essential for young children.

**Keywords:** Belles-lettres, thinking, Dilshod Rajab, mathematics, friendship, aesthetic education, logical reasoning.

**Аннотация:** В данной статье на примере произведения Дилшода Раджаба «Десять друзей, сосчитай-ка» (O‘n o‘rtoq, sanab boq) анализируется роль художественной литературы в развитии человеческой психики и интеллектуального потенциала. Обосновывается важность гармонии научных данных и художественного восприятия в формировании мировоззрения детей. Через анализ имен и образов героев раскрываются аспекты, имеющие образовательное и воспитательное значение для детей младшего возраста.

**Ключевые слова:** Художественная литература, мышление, Дилшод Раджаб, математика, дружба, эстетическое воспитание, логическое мышление.

**KIRISH.** Adabiyot – aqlimizni o‘stirishga, tafakkurimizni yangi-yangi axborotlar bilan boyitishga, shu tariqa sizni va bizni zamon talablariga javob bera oladigan, hayotning sinovlariga chiday oladigan qilib tayyorlashga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot aqldan ham ko‘ra ko‘proq hissiyotingizga ta’sir ko‘rsatadi. U yuragingizni bezovta qiladi, sizni loqaydlikdan xalos etadi.

To‘g‘ri, ilmiy adabiyotlar, ilmiy kitoblar orqali ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Masalan, ular tufayli kecha, kunduz, tong va hokazolar borasida oldin bilmagan narsalardan xabardor bo‘lasiz. Ayni vaqtda, sizda tongning juda go‘zalligi haqida tushuncha ham paydo bo‘ladi. Lekin bu tushuncha va axborotlar tafakkuringizni o‘stirsa ham hissiyot va tuyg‘ularingizga deyarli ta’sir qilmaydi. Agar ilm-fan va adabiyot uyg‘unlikda olib borilsa, o‘quvchi ongiga tez ta’sir qiladi, xotirada qolishi oson kechadi. Dilshod Rajab ham “O‘n o‘rtoq, sanab boq” kitobchasi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini oshirishga ulkan hissa qo‘shdi. Ushbu kitobchada matematikaning o‘ngacha bittalab qo‘shish qonuniyati she’riy usulda bayon etilgan bo‘lib, unga ilova qilingan rasmlar tegishli ranglarda bo‘yash uchun mo‘ljallangan.

Bir paytning o‘zida ham matematika, ham tasviriy san’at, ham adabiyot bilan chambarchas bog‘langan kitobcha orqali bolajonlar bilimi yuksaladi, ilm olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi.

**ASOSIY QISM.** Dilshod Rajabning ushbu to‘plami o‘ziga xos metodikasi – matematika, tasviriy san’at va adabiyotning yaxlitligi, shuningdek, sonlarni o‘rgatish barobarida bolalarda do‘stlik, mehr-oqibat va hayvonot olamiga muhabbat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish masalalari yoritilganligi bilan alohida ajralib turadi. Birinchi navbatda sarlavhaga e’tiborimizni qaratamiz. Kitob “O‘n o‘rtoq” deb nomlangan. Nega aynan “O‘n o‘rtoq”? Balki, muallif o‘nta sonni nazarda tutib, matematikani o‘rganish, u bilan do‘st tutinish demakdir, deyayotgandir. Buni tahlil davomida bilib olamiz. Kitobchaga shior qilib “O‘rganamiz varoqni, ishlatamiz bo‘yoqni” jumalari tanlangan. Bu kitob nafaqat o‘qish, balki rang berish vazifasini ham bajarishini anglatadi. Kirish qismidagi satrlar kitobning metodikasini ochib beradi:

O‘qib bu she’r — kitobni,  
O‘rganamiz hisobni.  
O‘ylab, fikr qilamiz,  
Do‘st qadrini bilamiz.  
Bo‘yaymiz rasmlarni,  
Tanlab barcha ranglarni.<sup>42</sup>

Bu orqali muallif bolani mantiqiy fikrlashga chorlaydi. Ichki qismdagi suratlarni bolaga o‘z xohishicha bo‘yash imkonini beradi. Bu esa raqamlarni eslab qolishni osonlashtiradi. “Do‘st qadrini bilish” orqali bola tarbiyasiga urg‘u beradi.

<sup>42</sup> Dilshod Rajab. O‘n o‘rtoq, sanab boq: O‘rganamiz sanoqni, ishlatamiz bo‘yoqni. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2019. 3 b.

She‘riy hikoyaning bosh qahramonlari Eshjon va uning qo‘zichog‘i. Bir o‘ylab ko‘raylik, shoir nega Sardor emas, Lochin emas, aynan Eshjon ismida to‘xtalgan? Bu Eshjon ismining ma‘nosi bilan bog‘liq. Eshjon “suyukli, qadrdon, aziz do‘st, hamroh” degan ma‘nolarni bildiradi.<sup>43</sup> Ushbu ism, asosan, o‘zbek tilida erkaklar uchun qo‘yiladigan bo‘lib, o‘z yaqinlariga nisbatan muhabbat va yaqin munosabatlarni anglatadi. Demak, shoirning maqsadi bolajonlarga do‘stlikni, mehr-oqibatni o‘rgatish.

Eshjonning qo‘zichog‘i juda sho‘x va o‘yinqaroq. Ammo u yolg‘iz, bitta ham do‘sti yo‘q. Qo‘zichoq:

Bir kun debdi: “Zerikdim,  
Yo‘q birorta do‘st-sherigim,  
Kezib dala-o‘tloqlar  
Topay do‘st-u o‘rtoqlar...”<sup>44</sup>

Hayotimiz qadrdonlarimiz bilangina mazmunli. Bejizga dono xalqimiz: “Yuz so‘m puling bo‘lmasin, yuzta do‘sting bo‘lsin”, demagan. Darhaqiqat, do‘sti ko‘p insonlar baxtli va saodatli bo‘ladilar. Do‘stlik, o‘rtoqlik, birodarlik fazilatlarini, asosan, maktabda shakllanadi. Chunki sinf jamoasidagi barcha bolalar bir-birlari bilan birga o‘qish, mehnat qilishga o‘rganadilar. Insonni do‘sti bor ekan — uni doim kuchi bo‘ladi, qudrati ham.

Yuqoridagi satrlardan ham shu xulosani olamiz. She‘riy hikoya davomida Eshjonning qo‘zichog‘i birin-ketin Uloqcha, Bo‘taloq, Buzoq, Toychoq, Laycha, Mushuk, Xo‘tikcha, Quyon bilan do‘stlashadi. Har bir uchrashuvda kitobxon bolajon bittadan sonni o‘rganib boradi, shu bilan birga o‘quvchi uy hayvonlari haqida ham ma‘lumotga ega bo‘ladi. Masalan, yosh bola echki “me” deb, qo‘zichoq “be” deb tovush chiqarishini, uy hayvonlarining bolalari qanday atalishini anglay boshlaydi. Rasmlarni bo‘yash orqali hayvonlar tasvirini xotirasida gavdalantiradi. Hikoya so‘ngida Eshjon ularni ko‘rib xursand bo‘lgani kabi o‘quvchi ham beixtiyor shodlanadi. Mutolaa jarayonida bolajonlar rolga kirib ketganini ham sezmay qoladi. Ushbu jarayon shoir tomonidan quyidagicha ifodalangan:

Eshjon ularni ko‘rib,  
Juda shod-xursand bo‘lib,  
Ochib barmoqlarini,  
Sanay ketdi barini.  
Bari to‘qqizta o‘rtoq,  
Ortib qoldi bir barmoq.  
Dedi: “O‘ninchi o‘zim,  
Barchangiz mening do‘stim!”  
Shunday, ish ham jo‘n bo‘ldi,

<sup>43</sup> Ismlar.com sayti

<sup>44</sup> Dilshod Rajab. O‘n o‘rtoq, sanab boq: O‘rganamiz sanoqni, ishlatamiz bo‘yoqni. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2019. 4 b.

Do‘stlar jami o‘n (10) bo‘ldi!<sup>45</sup>

Asosiy badiiy maqsad “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” maqolining poetik talqinini yaratishdir. Muallif o‘nta do‘stni qo‘ldagi o‘nta barmoqqa qiyoslaydi. Bu juda ham o‘rinli o‘xshatish, chunki barmoqlar faqat birlashgandagina (musht bo‘lganda) haqiqiy kuchga ega bo‘ladi. “Hamkor, hamfikr bo‘lsa, zerikish ham bo‘lmaydi” misralari jamoaviy ishning afzalliklarini ko‘rsatadi. Jamoada mehnat qilish charchoqni (zo‘riqishni) kamaytirishi ilmiy jihatdan ham isbotlangan haqiqatdir. Loyga botgan “Xo‘tikcha”ga yordam berish epizodi orqali qiyin ahvolda qolganlarga ko‘maklashish har bir insonning burchi ekanligi ramziy ma’noda uqtiriladi. She’rda tashbih, tashxis, intoq, metafora san’atlaridan ustalik bilan foydalanilgan. Hayvonlarning suhbatini intoq san’atini, “qo‘sh quloqcha”, “oyog‘ida etikcha”, “baroq”, “saman” kabi o‘xshatishlar orqali tashbih san’atini yuzaga keltirgan. She’r barmoq vaznida yozilgan bo‘lib, o‘qish uchun juda ravon va ohangdor. She’riy hikoya sodda va qiziqarli, shuning uchun bir nafasda o‘qishlidir.

**XULOSA.** “Mashhur bolalar adibi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Peshonasiga televizor yopishgan bola” nomli asari bor. Afsuski, aksar bolalar peshonasiga bitgan bu “balo”. Buning ustiga qulog‘i ham band, tom bitgan. Chunki qulog‘iga telefon “osilgan”. Endi u qanday ko‘radi-yu, nimani eshita oladi? Shuning uchun biz kattalar ko‘zimizni ochaylik, bolalarni kitobga qiziqtirishning yo‘lini o‘ylab topaylik, izlanaylik!”, - degan edi Dilshod Rajab.<sup>46</sup> Shunday ekan, bolasining ilmi va dono bo‘lib ulg‘ayishini xohlaydigan har bir ota-ona Dilshod Rajabning ushbu kitobchasini xarid qilsa arziydi. Kitobcha nafaqat aqliy salohiyatni, balki ma’naviy-ma’rifiy ongini ham shakllantirishga katta hissa qo‘shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilshod Rajab. O‘n o‘rtoq, sanab boq: O‘rganamiz sanoqni, ishlatamiz bo‘yoqni. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent: 2019. – B.19.2.
2. Dilshod Rajab “Baxshi bola – yaxshi bola”. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti, 2016. – 144 b
3. S. Mirvaliyev, R. Shokirova “O‘zbek adiblari”. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
4. 4. Бадий тасвир маҳорати: Р. Баракаев, Э. Очилов. - Тошкент: Muharrir nashriyoti 2021. – 48 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006. – 680 б
6. Дилшод Ражаб. Хайрли тонг. “Muharrir” nashriyoti, Тошкент: 2019. – Б.192.

<sup>45</sup> Dilshod Rajab. O‘n o‘rtoq, sanab boq: O‘rganamiz sanoqni, ishlatamiz bo‘yoqni. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2019. 13 b.

<sup>46</sup> Дилшод Ражаб. Хайрли тонг. “Muharrir” nashriyoti, Тошкент – 2019, 179 б.